



## FORTEPIANODA POLIFONIK ASARLAR

Saydaxmedova Umida Muxammadamin qizi

*Respublika musiqa va san'at kolleji*

*Annotatsiya; Ushbu maqolada kollej o'quvchilariga fortepiano dars mashg'ulotlarini o'tishda polifonik asarlar haqida ma'lumot berish yoritilgan.*

*Tayanch iboralar: polifoniya, avj, kadanslar, dinamik tuslar, fuga, kanon, ko'p ovozli musiqa, ovozosti polifoniya, qarama-qarshi ovozlar polifoniyasi, etyud.*

Polifoniyal (yunoncha poli-ko'p, fone-tovush, ovoz) – ko'p ovozli musiqa turi, har biri alohida mustaqillikga ega bo'lgan, bir necha kuyning garmonik qo'shilib, murakkablashib rivojlanishidir. Polifoniyadagi ovozlar turli ohang (intonastiya) ritm, avj (kulminastiya), intonastiya, kadanslar va hatto dinamik tuslar va tembrlarida bo'lishlaridan qat'iy nazar, bular qo'shilib bir umumiy eshutilishga bo'ysunadilar. Musiqa tuzilishida polifoniyaning ahamiyati juda muhim, chunki bundagi kuy, ritm, lad va garmoniyalar o'zaro uzviy bo'liq holda rivojlanadi. Shuning uchun musiqa janrlarining turli shakllari (fuga, invenstiya va kanon v.b.)da polifonik tuzilishlar qo'llaniladi. G'arbiy Yevropa va rus klassik kompozitorlari o'z asarlarida polifoniyadan keng foydalanganlar. O'tgan asrda yashagan kompozitorlardan I.S.Bax va G.F.Gendel ijodida polifoniya yanada rivojlandi. O'zbek xalq musiqasiga ko'p ovozli musiqa an'analarini tadbqiq etishda polifoniya alohida ahamiyatga ega bo'ldi. XX asrning 20-yillarida o'zbek xalq kuylarini garmoniyalashda polifoniya shakllaridan foydalanildi va bu tajriba kelgusida ko'p ovozli yirik asarlar yaratishda O'zbekiston kompozitorlariga omil bo'ldi. Asarlarda polifoniyalar ovozosti, qarama-qarshi, imitastion yozuvda uchraydi. Ovozosti polifoniya – asosiy ovoz rivojlanib, qolganlari u qadar mustaqillikga ega bo'lmagani holda asosiy ovozga tobe bo'ladi. Ayrim hollarda bu ovozlar muayyan o'zgarishlar bilan takrorlab, u bilan paralel ravishda rivojlanadi.

Bundan boshqa hollarda esa bu ovozlar asosiy ovozlardan farq qilib, umumiy rivoj konturlarida birlashishi mumkin. Har qaysi hollarda ham ovoz osti polifoniyasi melodik rivojning umumiy kuylanishini kengaytirishga xizmat qiladi.

Qarama-qarshi ovozlar polifoniyasi - melodik boshlovchilikning turli ovozlarda rivojlanishidir. Natijada ovozlar navbatma-navbat oldingi o'ringa chiqadi.

Etyud – texnik xarakterdagi asar yoki yakunlangan musiqiy tuzilmadagi mashqdir. Siz uni o'rganish jarayonida ustozingiz ko'magida notalarni ovozingizni chiqarib sanab, ritmiga qarsak bilan jo'r bo'lib o'rganishingiz mumkin.

### FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR:

1.Djamalova D., Utayeva N. "Fortepiano olamiga ilk qadamlar", o'quv qo'llanma. G'.G'ulom nomidagi NMIU, Toshkent, 2016.

2. Николаев А., Кисель Е., Натансон Б., Ереженская Н.. "Школа игры на фортепиано".Издательство "Музыка", Москва, 1975.



3. Akbarov I. Musiqa lug'ati. "O'qituvchi", - T., 1987.
4. Xayitboyeva D. Notani varoqdan o'qish va fortepiano ansambli. – T., "Uzbekiston", 2010.
5. Tashpulatova D. Rabota nad etyudami G. Mushelya v fortepiannom klasse. -T. «Uzbekistan». 2011.
6. Jahon va O'zbekiston kompozitorlarining asarlari. Turli yil nashrlari.